MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

Olimpiada topshiriqlari (III bosqichi)
DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI 11

1-qism: Har bir topshiriq 1,3 balldan baholanadi

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi bo‘limi inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan?
A) I bo‘lim B) III bo‘lim C) II bo‘lim D) VI bo‘lim

2. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qachon qabul qilingan?
A) 1992-yil 8-okyabr B) 1996-yil 1-sentyabr C) 1998-yil 30-aprel D) 2000-yil 12-may

3. O‘zbekiston Respublikasida nechanchi yildan barcha to‘lovlar va hisob-kitoblar faqat milliy valutada – so‘mda amalga oshirildi?
A) 1995-yil 7-yanvarda B) 1994-yil 15-iyulda C) 1994-yil 15-oktabrda D) 1993-yil 7-martda

4. Sud tamonidan qonunga mos bo‘lmagan qaror qabul qilingan holda prokuror yuqori turuvchi sudga qanday murojaat qiladi?
A) Qaror B) Protest C) Ariza D) Taqdimnoma

5. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi nechta bo‘lim va moddadan iborat?
A) 6 ta bo‘lim, 128 modda B) 8 ta bo‘lim, 155 modda
C) 8 ta bo‘lim, 238 modda D) 11 ta bo‘lim, 302 modda

6. Qachondan boshlab butun dunyoda, jumladan, O‘zbekistonda ham Xalqaro oila kuni keng nishonlab kelinadi?
A) 1992-yil 5-aprel B) 1992-yil 1-iyun C) 1994-yil 15-may D) 1999-yil 20-fevral

7. Merosdan voz kechish merosxo‘r tomonidan kimga ariza berish orqali amalga oshiriladi?
A) Sud B) Prokuror C) Hokim D) Notarius

8. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar obyektini toping.
A) Jismoniy shaxs B) Yuridik shaxs C) Davlat D) Mulk

9. Davlat funksiyalarining faoliyat ko‘rsatish makoni bo‘yicha amalga oshiradigan mezonni toping.
A) Ichki va tashqi B) Doimiy va vaqtinchalik C) Asosiy va asosiy bo‘lmagan D) Ijod qilish va ijro qilish

10. O‘zbekiston Respublikasi qachon Jahon intellektual mulk tashkilotiga a’zo bo‘lgan?
A) 1991-yil 25-dekabrda B) 1992-yil 1-avgustda C) 1995-yil 4-aprelda D) 1993-yil 6-noyabr

2-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi

11. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, tumanlar, shaharlar prokurorlarining vakolat muddati qanchani tashkil qiladi?
A) 7 yil B) 5 yil C) 3 yil D) 10 yil

12. Davlat shakllari deb …
A) davlatning boshqaruv, hududiy tuzilishi va siyosiy tartibi jihatidan qanday shakllarga bo‘linishi tushuniladi
B) davlat hokimiyati, uning idoralarining aholi bilan o‘zaro munosabatlari, aholining ushbu idoralarni shakllantirishda ishtirok etish darajasi tushuniladi
C) suvereniteti va mustaqilligini saqlab qolgan holda biror-bir maqsadga erishish uchun birlashgan davlatlar ittifoqi
D) davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari va uslublari tizimiga aytiladi

13. Huquq qoidalari bilan tartibga solinadigan oilaviy munosabatlar nima deb ataladi?
A) oiladagi huquqiy munosabatlar B) jamiyatdagi oilaviy munosabatlar
C) davlatdagi huquqiy oila munosabatlari D) oila huquqi

14. Fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishi, o‘zgartirilishi va bekor bo‘lishi haqidagi kelishuv nima deyiladi?
A) shartnoma B) bitim C) pakt D) deklaratsiya

15. Oliy Majlis Senatori va deputatlikka nomzodlarga qo‘yiladigan talablar to‘g‘ri berilgan javobni toping?
A) Saylov kuni 25 yoshga to‘lgan hamda kamida 5 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi
B) Saylov kuni 20 yoshga to‘lgan hamda kamida 5 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi
C) Saylov kuni 35 yoshga to‘lgan hamda kamida 10 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi
D) Saylov kuni 30 yoshga to‘lgan hamda kamida 10 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi

16. Xalqaro va ijtimoiy guruhlarning xalqlar, millatlar ozodligi, mustaqilligi, huquqiy tengligiga asoslangan birdamlik va o‘zaro hamkorlik prinsipi fanda nima deyiladi?
A) Proteksionizm B) Publicionizm C) Internatsionalizm D) Sotsializm

17. Nechanchi yilda O‘zbekiston tashabbusi bilan “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida Toshkent xalqaro konferensiyasi bo‘lib o‘tdi?
A) 2017-yil B) 2018-yil C) 2021-yil D) 2023-yil

18. Nikoh so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
A) fors tilidan olingan bo‘lib, shartnoma tuzish degan ma’noni anglatadi
B) arabchadan olingan bo‘lib, kelishish, ittifoq degan ma’noni anglatadi
C) lotinchadan olingan bo‘lib, yarashish, kelishuv degan ma’noni anglatadi
D) nemis tilidan olingan bo‘lib, do‘stlashish, tanishuv degan ma’noni anglatadi

19. Bir shaxsning boshqa shaxsga tovar yetkazib berish, biror-bir xizmat ko‘rsatish va boshqa uchun shartnoma tuzish istagi va shartlari haqida yozma yoki og‘zaki xabarnomasi nima deyiladi?
A) Aksept B) Offerent C) Oferta D) Akseptant

20. “Odamlar! Eng avvalo ezgu axloqqa ega bo‘lishga harakat qiling, zero, axloq qonunning asosidir”, degan jumla muallifini toping.
A) Mirzo Ulug‘bek B) Abu Nasr Forobiy C) Aristotel D) Pifagor

21. Aliment to‘laydigan shaxs alimentni qancha muddat ichida to‘lay olmagan hollarda aliment jamg‘armasidan qarzdorlik to‘lanadi?
A) uch oy B) bir oy C) olti oy D) bir yil

22. Barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo‘lish layoqati nima deyiladi?
A) Huquq subyekti B) Huquq layoqati C) Muomala layoqati D) Huquqiy munosabat

23. Bugungi kunda BMTning jami nechta ixtisoslashgan tashkiloti faoliyat yuritib kelmoqda?
A) 25 ta B) 17 ta C) 31 ta D) 10 ta

24. Qimmatli qog‘ozlarga nimalar kiradi?
A) obligatsiya, chek B) deposit sertifikati, loteriya
C) jamg‘arma sertifikati, chipta D) aksiya, loteriya

25. Yagona partiyaning hukmronligi, huquq va erkinliklarning poymol etilishi nima deyiladi?
A) nodemokratik tartibot B) totalitar tartibot C) fashistik tartibot D) siyosiy tartibot

3-qism: Har bir topshiriq 3,4 balldan baholanadi

26. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining nechanchi moddasiga ko‘ra, ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to‘sqinlik qilish jinoyat hisoblanib, jinoiy javobgarlikka tortiladi?
A) 136-modda B) 81-modda C) 161-modda D) 101-modda

27. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1965-yilda qaysi konvensiya qabul qilingan?
A) Irqiy kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya
B) Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya
C) Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya
D) Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiya

28. Agar monarxning hukmronligi konstitutsiyaga tayanuvchi biron-bir idora bilan cheklangan bo‘lsa, bunday monarxiya cheklangan, konstitutsiyaviy, parlament boshqaruvi shaklidagi monarxiya bo‘ladi. Bularga hozirgi kundagi mavjud bo‘lgan qaysi davlatlarni misol qilib keltirish mumkin?
A) Buyuk Britaniya, Daniya, Saudiya Arabistoni, Shvetsiya
B) Buyuk Britaniya, Germaniya, Norvegiya, Shvetsiya
C) Buyuk Britaniya, Daniya, Rossiya, Shvetsiya D) Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Shvetsiya

29. Gellap Xalqaro tadqiqot markazining xavfsizlik bo‘yicha 2017-yilgi reytingida 142 ta davlat ichidan eng xavfsiz deb 5 ta qaysi davlatlar e’tirof etilgan?
A) Angliya, Yaponiya, Singapur, Islandiya, Gollandiya
B) Portugaliya, Fransiya, Shveysariya, Germaniya, Vyetnam
C) Singapur, Norvegiya, Islandiya, Finlandiya, O‘zbekiston
D) Shvetsiya, Islandiya, Finlandiya, Yaponiya, Singapur

30. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 71-maqsadida qaysi vazifa belgilab qo‘yilgan?
A) oila, ta’lim muassasalari va mahallada tarbiyaning uzviyligini ta’minlash vazifasi
B) yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash vazifasi
C) keksalarga g‘amxo‘rlik qilish vazifasi
D) oila, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish vazifasi

31. “Har bir oilaning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millatlar ham shuncha kuchli bo‘ladi. Agar bir mamlakatning aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi”. Ushbu fikr muallifini toping?
A) Abu Nasr Forobiy B) Abdurauf Fitrat C) Abdulla Avloniy D) Abu Ali ibn Sino

32. Fuqarolar yig‘ini organlari berilgan javobni toping.
A) fuqarolar yig‘ini kengashi, fuqarolar yig‘ini tuzilmasi va ma’rifiy-ma’naviy kengashi
B) fuqarolar yig‘ini tuzilmasi, fuqarolar yig‘ini boshqarmasi
C) fuqarolar yig‘ini kengashi, fuqarolar yig‘inining asosi yo‘nalishlari bo‘yicha komissiya va taftish komissiya
D) fuqarolar yig‘inining asosi yo‘nalishlari bo‘yicha komissiya va fuqarolar yig‘ini boshqarmasi

33. 1999-yilda O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan qanday markazni tashkil etish g‘oyasi BMT tomonidan qabul qilinadi?
A) Ekologiyani asrab avaylash bo‘yicha xalqaro markazni tashkil etish
B) Jinoyatchilik va uni oldini olish bo‘yicha xalqaro markazni tashkil etish
C) Terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro markazni tashkil etish
D) Giyohvandlikka qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro markazni tashkil etish

34. Mamlakatning ichki huquq tizimi tarmoqlari to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.
1) Siyosiy huquq tarmoqlari; 2) Moddiy huquq tarmoqlari; 3) Protsesual huquq tarmoqlari; 4) Iqtisodiy huquq tarmoqlari
A) 1, 3 B) 1, 2 C) 2, 3 D) 1, 4

35. Demokratik saylov prinsiplari qaysi javobda berilgan?
A) yalpi umumiylik, tenglik, qonuniylik, ochiqlik B) ochiqlik, yashirinlik, yalpi umumiylik, tenglik,
C) shaffoflik, do‘stlik, ochiqlik, tenglik D) adolatlilik, ochiqlik, qonuniylik, tenglik

36. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi qanday ishni amalga oshiradi?
A) tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta’minlash vazifasini amalga oshiradi
B) bola huquqlariga oid qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi, bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini o‘rganadi, bolalar va ularning qonuniy vakillari o‘rtasida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tushuntiradi
C) tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mazkur huquqlar va qonuniy manfaatlarga davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar tomonidan rioya etilishini ta’minlaydi
D) inson huquqlari sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish bo‘yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning o‘zaro hamkorligini, milliy ma’ruzalar tayyorlanishini, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirishni ta’minlaydi

37. Qaysi yosh oralig‘ida bo‘lgan voyaga yetmaganlar o‘zlari tuzgan bitimlar bo‘yicha mustaqil ravishda mulkiy javobgar bo‘ladilar va ular o‘zlari yetkazgan zarar uchun ham javobgar hisoblanadi?
A) 10 yoshdan 17 yoshgacha B) 16 yoshdan 18 yoshgacha
C) 14 yoshdan 18 yoshgacha D) 1 yoshdan 16 yoshgacha

38. BMTning asosiy organlaridan qaysi birining faoliyati hozirgi kunda to‘xtatilgan?
A) Kotibiyat B) Iqtisodiy va ijtimoiy kengash
C) Vasiylik kengashi D) Xavfsizlik kengashi

39. Sud idoralarining mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanishi BMT tomonidan qabul qilingan qaysi xalqaro huquqiy hujjatda ham o‘z ifodasini topgan?
A) Sud idoralarining mustaqilligiga oid asosiy tushunchalar
B) Sud idoralarining mustaqilligini kafolatlanishi
C) Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish
D) Sud idoralarining mustaqilligiga oid asosiy tamoyillar

40. Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar. Ushbu jumla O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida aks etgan?
A) 61-modda B) 72-modda C) 77-modda D) 67-modda